

**Tashqi bozor konyunkturasi va eksportning barqarorligi**

**Azizova Mavjuda Valijonovna**

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti magistratura bo'limi, 2-kurs talabasi

**Nusratulloyeva Dilnoza Shavkatovna**

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, xitoyshunoslik fakulteti, 1- kurs talabasi

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada O'zbekiston eksportining tarkibiy o'zgarish xususiyatlari, tashqi bozor konyunkturasi va uning eksport barqarorligiga ta'sir etish muammolari o'rganilgan. Tadqiqot natijalari asosida mamlakat eksport barqarorligini ta'minlash bo'yicha takliflar berilgan

**Kalit so'zlar:** Tashqi bozor, Iqtisodiy inqiroz, eksport barqarorligi, diversifikatsiya.

**External market conditions and sustainability of export**

**Azizova Mavjuda Valijonovna**

Termiz University of Economics and Service, graduate department, 2nd year master's degree student

**Nusratillayeva Dilnoza Shavkatovna**

Tashkent State University of Oriental Studies, Faculty of Chinese Studies, 1st year student

**Abstract.** This article examines structural changes in Uzbekistan's exports, the situation on the foreign market and its impact on the stability of exports. Based on the results of the study, proposals were made to ensure export stability.

**Key words:** External market, Economic crisis, sustainability of export, diversification

**Kirish.** Mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishida bozor konyunkturasi o'zgarishlari muhim o'rin tutadi. Shu o'rinda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda davlatning iqtisodiy siyosati ichki va tashqi bozor konyunkturasiidagi istiqbolli o'zgarishlarga hisobga olib amalga oshirilish lozim. Bozor konyunkturasi iqtisodiy munosabatlarning alohida subyektlarning harakatlaridan qat'iy nazar, milliy iqtisodiyotda iqtisodiy xavfsizlik holatini belgilovchi ishlab chiqarish, texnik, iqtisodiy, moliyaviy va boshqa shartlar majmui asosida shakllanadi. Bozor konyunkturasi o'zgarishiga ko'plab omillar ta'sir qiladi. Iqtisodiy adabiyotlarda bozor konyunkturasi mamlakat va jahon miqyosida ayrim turdagi mahsulot ishlab chiqarishning o'sishi, tovarlar assortimentining kengayishi., turli mamlakatlarda (hududlarda) bozor siyosatining o'zgarishi, yangi

texnologiyalarning paydo bo'lishi, innovatsion va ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni rivojlantirish, aholining daromadlari o'zgarishi, ijtimoiy tabaqalanishini, uning migratsiyasi va boshqa ko'plab omillar ta'sir etishi qayd etilgan. Mamlakatimizda milliy iqtisodiyotning jahon iqtisodiyotiga samarali integratsiyalashuvini ta'minlashga qaratilgan amalga oshirilgan islohotlar o'z samarasini bermoqda. Xususan, eksportda paxta tolasining ulushi qisqarib uning tarkibida tayyor, qo'shilgan qiymati yuqori mahsulotlarning ulushi ortib bermoqda. Eksportning geografiyasi ham kengayib borib, mamlakatimiz eksportchi korxonalar o'z mahsulotlari bilan yangi bozorlarga kirib bermoqda. Jumladan, 2022 yilda Mamlakatimiz tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 38,4 foiz tashkil etgan bo'lsa, boshqa mamlakatlarning ulushi 61.6 foizni tashkil etdi [1]. Deyarli shu nisbatni mamlakatimiz eksportida ham kuzatishimiz mumkin. Bu esa mamlakatimiz eksportining barqarorligi ushbu mamlakatlardagi konyunkturaviy o'zgarishlarga bog'ligini kuchaytiradi. Bundan tashqari, mamlakatimiz asosiy eksport yo'nalishlari bo'lmish Afg'oniston, Ukraina kabi davlatlardagi siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar, shuningdek, Turkiyadagi inflyatsion jarayonlar mamlakatimiz eksporti hajmiga bevosita ta'sir etmoqda. Ushbu sharoitda, mamlakatimiz iqtisodiy rivojlanishi hamda barqarorligini ta'minlashda tashqi bozor konyunkturasi o'zgarishlari natijasidagi salbiy ta'sirlarini kamaytirish imkonini beruvchi iqtisodiyot tarkibini shakllantirish muhim o'rin tutadi.

### **Adabiyotlar tahlili**

Tashqi bozorlarning mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishining barqarorligiga ta'siri muammolari ko'plab iqtisodchi olimlar tadqiqotlarida o'rin olgan. Bir guruh iqtisodchi olimlar jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozlarning mamlakat iqtisodiyoti va bozorlarga ta'sirini aniqlashga harakat qilishgan. Jumladan, K.Yellebi bir guruh olimlar bilan COVID-19 pandemiyasining jahon qishloq xo'jalik mahsulotlari bozoriga ta'sirini o'rganishgan. Ushbu tadqiqot natijalari ko'rsatishicha 2020-2021 yillarda pandemiya natijasida jahon bozorida gusht narxi 7-18 foizga, oziq – ovqat mahsulotlarining narxlari 4-7 foizga pasaydi. Bu esa qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarining daromadlari qisqarishiga olib keldi[2]. Pandemiya natijasida yuzaga kelgan iqtisodiy inqiroz barcha mamlakatlarga bir xil ta'sir etmadi, uning ta'siri ko'p jihatdan mamlakat iqtisodiyotining tarkibiga bog'liq bo'ldi. Jumladan, Yevropadagi turizm sohasidagi daromadi muhim o'rin tutgan mamlakatlarning ushbu davrdagi iqtisodiy yo'qotishlari boshqa mamlakatlarga nisbatan yuqori bo'ldi [3]. Turizm sohasining daromadlari pasayishi Xitoyning yalpi ichki mahsulotining 2020 yilda 7% foizga pasayishiga sabab bo'ldi [4].

Boshqa guruh tadqiqotchilari tashqi bozor konyunkturasi ta'sirini o'rganishda tashqi savdo muammolarini o'rganishgan. Ularning fikricha tashqi bozorlardagi o'zgarishlarning mamlakat iqtisodiyotini salbiy ta'sirini kamaytirishda tashqi savod diversifikatsiyasi muhim o'rin tutadi. Jumladan, N.P. Canh, S.D.Thanhlar 70 ta mamlakatning 1996-2014 yillardagi ma'lumotlarni tahlil qilib eksport diversifikatsiyasining mamlakat barqaror iqtisodiy o'sishida muhim o'rin tutishni aniqlashgan. Shu bilan birga, eksport diversifikatsiyasi uning tarkibida qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan mahsulotlar o'rin olishi iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'siri yuqori bo'lishi qayd etilgan[5]. Bu kabi natijalarni boshqa tadqiqotlarda ham ko'rishimiz mumkin[6]. Mazkur tadqiqotlarda O'zbekiston iqtisodiyotiga tashqi bozor konyunkturasi o'zgarishi baholanmagan. O'z navbatida mamlakatimiz iqtisodiy siyosati samaradorligini oshirishda tashqi bozorlarning salbiy ta'siri manbalarini aniqlash va baholash muhimdir.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Ushbu maqoladoirasidagi tadqiqot jarayonida mavzuga oid statistik ma'lumotlar va nazariyalarni o'rganishda mantiqiy fikrlash, ilmiy mushohada, tizimli yondashuv, shuningdek, abstraksiya, tahlil va sintez usullaridan foydalanildi. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi va boshqa davlat idoralarining ochiq ma'lumotlari hamda xalqaro savdoga oid ma'lumotlar bazalari statistik ma'lumotlaridan foydalanildi.

### **Tahlil natijalari**


Bozor konyunkturasi, o'zbek tilida "bozor holati" deb atalib, bozorda muvozanat va taklifning o'zaro mutanosibligi va ularning o'zgarishlarini tushunish uchun ishlatiladi. Bozor konyunkturasi o'z ichiga mamlakatdagi bozorining holatining ijobiy yoki salbiyligini ekanligini ifodalaydi.

*Ijobiy bozor konyunkturasi:* Bu holatda bozorda sotilayotgan mahsulotlar va xizmatlar uchun iste'molchilar tomonidan katta talab mavjud. Bu katta talabni bajarish uchun tovarlar ishlab chiqarishini oshirish va xizmatlarni ko'proq sotish imkoniyatini beradi. Bu davr sotuvchi uchun qulaydir, chunki ular tovarlarini qimmatga va ko'proq sotib, ortiqcha daromad ko'radi.

*Salbiy bozor konyunkturasi:* Bu holatda bozorda sotilayotgan mahsulotlar va xizmatlar uchun talab hajmi pasayib boradi. Talab hajmining pasayishi tovarlar narxining pasayishi va raqobatning kuchayishiga olib keladi. Bu davr ishlab chiqaruvchi (sotuvchi) uchun xarajatlarni qoplash mushkul bo'ladi, shu sababli ishlab chiqarish hajmini qisqartiri yoki to'xtatishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bozor konyunkturasi talab va taklifning o'zgarishlariga bog'liq ravishda o'zgarib turadi. Agar talab taklifdan yuqori bo'lsa, bozor ijobiy holatga o'tadi va sotuvchi uchun qulay bo'ladi. Biroq, agar taklif oshib ketsa, bozor salbiy holatga o'tadi va sotuvchi uchun noqulayliklar paydo bo'ladi.

Bozor konyunkturasi o'zgarishlariga iqtisodiy muhitning o'zgarishi, mavsumiy o'zgarishlar, siyosiy qarorlar, va boshqa omillarga bog'liq. Bozor konyunkturasi mikro va makro darajada tahlil qilinadi. mikro darajada alohida olingan ishlab chiqaruvchi mahsulotlari bozorlari, yoki alohida tovarlar bozori tahlil etilsa, makrodarajada mamlakat, mintaq, yoki jahon bozori holati tahlil etiladi. O'z navbatida davlat samarali iqtisodiy siyosatini amalga oshirishda ham mikrodarajada ham makrodarajada bozor konyunkturasini o'rganishi lozim. Hozirgi kunda har bir davlatning barqaror rivojlanishida jahon iqtisodiyotiga samarali integratsiyalashuvi muhimdir. Shu munosabat bilan davlat iqtisodiy siyosati tashqi bozorlarning salbiy oqibatlarini minimallashtirish imkonini beruvchi mamlakat iqtisodiyining tarkibini shakllantirishga qaratilgan bo'lishi lozim.



**1-rasm. O'zbekiston eksport va importi dinamikasi (2000-2022, mln AQSh dollari) [1]**

Mamlakatimizda ham jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashishning samarali shakllarini rivojlantirishga qaratilgan tashqi savdo siyosati yuritilmoqda, Mazkur siyosating asosiy maqsadi eksporting diversifikatsiyani ta'minlash hamda uning tarkibida xom ashyo ulushini kamaytirish va qayta ishlangan mahsulotlar ulushini ko'paytirishga qaratilgan.

O'zbekiston tashqi savdo aylanmasining qiymati 2000-2022 yillar davomida 8 barobar, eksport - 5.9 barobar, import esa 10.4 barobar o'sdi. Y'ani tashqi savdo

aylanmasining o'sishi asosan import hisobidan ro'y berdi. Importning yuqori sur'atlar bilan o'sishi 2016-2022 yillarga to'g'ri keladi, aynan ushbu davrda tashqi savdoning salbiy balansining o'sishi kuzatilmoqda (1-rasm).

Mamlakatimizda bu sohada amalga oshirilgan islohotlar davomida eksportning diversifikatsiyani ta'minlashga e'tibor berildi. Buning natijasida nafaqat eksport tarkibi, balki uning geografiyasida xam sezilarli o'zgardi. Mamlakatimiz eksportida uzoq xorij mamlakatlarning ulushi muntazam oshib kelishi natijasida MDH davlatlarining ulushi qisqardi. Shu bilan birga O'zbekiston eksporti bir guruh mamlakatlar bozoriga bog'liqligi darajasi hanuz yuqoriligi saqlanib qolinmoqda [7].

Quyidagi jadvalda Xalqaro savdo standartlari turkumlanishi bo'yicha eksport tarkibi yillar bo'yicha o'zgarish dinamikasi keltirilgan (1-jadval).

**1-jadval**

**Eksport tarkibi (XSST guruhlari kesimda) 2000-2022, mln. AQSh dollari hisobida [1]**

	<b>XSST nomi</b>	<b>2000</b>	<b>2005</b>	<b>2010</b>	<b>2015</b>	<b>2020</b>	<b>2022</b>
1	Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	95,5	140,8	1 056,2	1 239,6	1 336,2	1 631,5
2	Ichimliklar va tamaki	32,5	16,2	44,5	23,1	27,1	111,0
3	Nooziq-ovqat xomashyo, yokilg'idan tashqari	972,0	1 104,8	1 733,5	885,3	456,1	393,6
4	Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	250,5	604,6	2 907,8	2 685,1	659,0	1 215,2
5	Hayvonlar va usimliklar moylari (yog'lari), yoglar va mumlar	4,8	12,3	1,4	0,2	26,8	21,2
6	Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	81,7	278,1	637,9	594,8	820,9	1 301,3
7	Asosan material turiga qarab	399,4	729,3	1 610,4	1 739,5	2 906,4	4 383,7

VOLUME-1, ISSUE-4

	klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari						
8	Mashinalar va transport asbob-uskunolari	100,5	432,7	699,8	137,0	434,4	973,6
9	Turli xil tayyor buyumlar	28,6	30,0	153,6	213,1	617,3	1112,4
10	Boshqa tovarlar	694,5	1329,5	2624,4	1920,6	5813,1	4132,3
11	Xizmatlar	448,4	657,5	1335,5	3061,3	2005,0	4017,8

Mazkur turkumlanishida savdo qilinayotgan mahsulotlarning qaysi tarmoqqa tegishligini aniqlash imkoni yaratiladi. Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston eksportida material sig'imi yuqori bo'lgan sanoat mahsulotlari ulushi yuqori, 2022 yilda, ushbu tarmoqning eksportdagi ulushi 22,7 foizni tashkil etgan. O'z navbatida mazkur turdagi mahsulotlarning mamlakat 2000 yildagi eksportida ulushi 12,8 foiz tashkil etgan. Ya'ni kuzatuv davrida bu turdagi mahsulotlar eksportining hajmi (10,9 barobar) bilan bir qatorda uning ulushi ham sezilarli o'sgan. Bundan tashqari oziq – ovqat mahsulotlari, kimyo sanoati mahsulotlari va boshqa tayyor mahsulotlari eksporti ham shu kabi yuqori o'sish ko'rsatkichlariga ega bo'lgan. O'z navbatida, nooziq-ovqat xomashyo (yoqilg'idan tashqari) eksporti miqdori 2,5 barobar, eksportdagi ulushi esa 31,3 foizdan 2 foizgacha tushgan. O'z navbatida mineral yoqilg'i eksporti hajmi sezilarli o'sgan bo'lishiga qaramasdan (4,9 barobar) uning eksportdagi ulushi 8,1 foizdan 6,3 foizgacha tushgan.

Ushbu ma'lumotlar mamlakatimiz eksportida qayta ishlangan mahsulotlar ulushi oshayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga qayd etish lozimki, eksport tarkibida quyi texnologiyalar asosida ishlab chiqarilgan material sig'imi yuqori bo'lgan mahsulotlarning ulushi yuqoriligi saqlanib qolmoqda. Bu esa o'z navbatida eksportning barqarorligi ushbu turdagi xomashyo narxiga bog'liqligini saqlab qoladi.

Mamlakatimiz eksportida mahsulotlar bilan bir qatorda xizmatlarning ulushi sezilarli oshdi. Xususan, 2000 yilda 448,4 mln. AQSH dollari tashkil etgan bo'lsa, 2022 yilga kelib 8.9 barobar o'sib 4017,8 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Hozirgi kunda xizmatlar mamlakatimiz eksportining sal kam 21 foizini tashkil etmoqda.

### Xulosa va takliflar

Mamlakatimiz eksportini barqarorligini ta'minlashda uning tashqi bozorlardagi konyunkturaviy o'zgarishga bog'liq darajasi pasaytirish o'ta muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu maqsadda eksportning diversifikatsiyani ta'minlash, uning tarkibida qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan tayyor mahsulotlar ulushini ko'paytirish zarur.

Mamlakatimizda bu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida so'nggi yillarda eksport tarkibi va geografiyasi kengaytirildi, uning tarkibida xomashyo ulushi sezilarli qisqartirildi. Shu bilan birga, uning tarkibida material sig'imi yuqori bo'lgan sanoat mahsulotlarining yuqori ulushi saqlanib qolmoqda. Bundan tashqari eksportning salmoqli ulushi sanoqli mamlakatlarga to'g'ri kelmoqda. Masalan, 2022 yilda eksportimizning 52,0 foizi Rossiya, Xitoy, Qozog'iston va Turkiyaga to'g'ri keldi. Bu esa o'z navbatida mamlakatimiz eksport barqarorligini ushbu to'rtta mamlakatlardagi iqtisodiy vaziyatiga bog'liqligining yuqori darajasini saqlab qoladi. Bundan tashqari eksport tarkibidagi mahsulotlar bo'yicha oltin eksporti muhimi bo'lib, 2022 yilda unga eksportning 21,3 foizi to'g'ri kelgan.

O'zbekiston eksporti barqarorligiga tashqi bozorlardagi konyunkturaviy o'zgarishlarning salbiy ta'sirini kamaytirish quyidagi muammolarni bartaraf etishni taqozo etadi:

Eksport tarkibining diversifikatsiyasi muammolari. Mamlakatimizda eksportning tarkibi kengaytirildi, qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan mahsulotning ulushi ortib bormoqda. Shu bilan birga, eksportning asosiy qismi tor toifadagi mahsulotlarga to'g'ri kelmoqda, ko'pchilik mahsulotlarning eksport hajmi past darajada saqlani qolmoqda. Bundan tashqari eksport geografiyasini kengaytirish ham muhimdir.

Transport sohasidagi muammolar. O'zbekiston taqi bozorlarda chiqishdagi eng asosiy muammolardan biri bu transport xarajatlarining yuqoriligidir. Bu bir tomondan transport xarajatlari hisobidan tashqi bozorlarda milliy mahsulotlarimizning narxining yuqori bo'lishiga olib keladi. Ikkinchi tomondan, eksportning barqarorligi ko'p jihatdan yoqilg'i – moylash materiallar narxiga bog'liq darajasini yuqoriligiga sabab bo'ladi. Shu sababli mamlakatimiz eksportining hamini oshirish va tarkibini kengaytirishda samarali logistik yechimlar bilan bog'liq masalalar yechimini topish lozim. Mamlakatimizda tashqi savdo transport yo'laklarini ko'paytirish, logistik markazlar tashkil etish bo'yicha ko'plab mamlakatlara kelishuvlar imzolandi, bu sohaga investitsiyalar jalb etilishi jadallashtirildi. Nazarimizda, bu sohada xususiy sektor faolligini oshirish va

raqobatchilik muhitini rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiy siyosatning samarali yoʻnalishlarini aniqlash lozim.

Infratuzilmaviy muammolar. Tashqi savdo samaradorligiga transport taʼminotidan tashqari logistika xizmati, yuklarni rasmiylashtirish, bank xizmatlari, sugʻurta, savdo vositachilik, marketing va boshqa koʻplab xizmat koʻrsatuvchi infratuzilmaning rivojlanishiga bogʻliq. SHU sababli tashqi savdoga xizmat koʻrsatuvchi infratuzilmani rivojlantirish, sohada raqobatchilik muhitini yaratish va ularning xizmatining sifatini yaxshilashga qaratilgan islohotlarni amalga oshirish zarurdir.

Sanoat tarmogʻi tarkibining tashi bozor talablariga moslashtirish muammolari. Mamlakatimiz va qoʻshni mamlakatlar bozorining sigʻimi katta emasligi yirik sanoat korxonalarini rivojlantirish imkoniyatlarini maʼlum darajada cheklaydi. Oʻz navbatida logistik xarajatlar yuqoriligi uzoq xorij mamlakatlarda milliy mahsulotlarimiz raqobatbardoshligiga salbiy taʼsir etadi. Bu sharoitda mamlakatimiz tashqi bozorlardan nisbiy ustunligi bor mahsulot ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlarini aniqlash va rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratish dolzarbdir

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Oʻzbekiston Respublikasi Statistika Qoʻmitasi maʼlumotlari
2. Aktar, Most Asikha, Md Mahmudul Alam, and Abul Quasem Al-Amin. "Global economic crisis, energy use, CO2 emissions, and policy roadmap amid COVID-19." *Sustainable Production and Consumption* 26 (2021): 770-781.
3. Curtale, Riccardo, et al. "Impact of COVID-19 on tourism demand in European regions-An analysis of the factors affecting loss in number of guest nights." *Annals of Tourism Research Empirical Insights* 4.2 (2023): 100112.
4. Lee, Lien-Chieh, et al. "Impact of COVID-19 on the economic loss and resource conservation of China's tourism industry from the supply chain perspective." *Cities* 144 (2024): 104633.
5. Canh NP, Thanh SD. The dynamics of export diversification, economic complexity and economic growth cycles: Global evidence. *Foreign Trade Review*. 2022 Aug;57(3):234-60.
6. Отамуродов Ш. Ўзбекистон экспорти диверсификациясининг замонавий муаммолари. *Economics and Innovative Technologies*. 2022 Aug 30;10(4):355-64. [https://doi.org/10.55439/EIT/vol10\\_iss4/a36](https://doi.org/10.55439/EIT/vol10_iss4/a36)
7. Отамуродов, Ш. (2022). ЎЗБЕКИСТОН САНОАТ МАҲСУЛОТЛАРИ ЭКСПОРТИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ. *Iqtisodiyot Va taʼlim*, 23(6), 383–389. [https://doi.org/10.55439/ECED/vol23\\_iss6/a868](https://doi.org/10.55439/ECED/vol23_iss6/a868)